



The application of the management practices of Presidential schools to general secondary education institutions

Mamura TADJIBAEVA¹

National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

presidential schools,
educational management,
general secondary
education,
leadership,
school administration,
teacher performance,
student-centered learning,
quality assurance.

ABSTRACT

This study examines the process and effectiveness of applying the management practices of Presidential schools to general secondary education institutions. Presidential schools, established to cultivate high-achieving students and promote innovative teaching approaches, have demonstrated advanced models of educational management based on meritocracy, accountability, and modern pedagogical technologies. The research explores how these managerial principles—such as data-driven decision-making, teacher performance evaluation, leadership development, and student-centered education—can be adapted to ordinary schools. Through comparative analysis and case studies, the paper identifies the opportunities, challenges, and strategies for successful integration of these practices into the general education system. The findings suggest that adapting the management model of Presidential schools can enhance the overall quality of education, improve administrative efficiency, and foster innovation in teaching and learning across all schools.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp200-206>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Independent Researcher, National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni.
Email: m.tadjibayeva@tashkentps.uz

Prezident maktablari boshqaruv faoliyatining umumiy o'rta ta'lim maktablariga tatbiq etilish holati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Prezident maktablari,
ta'lim boshqaruvi,
umumiy o'rta ta'lim,
yetakchilik,
maktab boshqaruvi,
o'qituvchi faoliyati,
o'quvchiga yo'naltirilgan
ta'lim,
sifat nazorati.

Ushbu tadqiqot Prezident maktablari boshqaruv amaliyotlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tatbiq etish jarayoni va samaradorligini o'rganadi. Yuqori natijalarga erishuvchi o'quvchilarni tayyorlash hamda innovatsion o'qitish yondashuvlarini ilgari surish maqsadida tashkil etilgan Prezident maktablari javobgarlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ilg'or ta'lim boshqaruvi modelini namoyish etmoqda. Tadqiqotda ushbu boshqaruv tamoyillari – ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, o'qituvchilar faoliyatini baholash, yetakchilikni rivojlantirish hamda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim – umuta'lim tizimidagi maktablarga qanday moslashtirilishi mumkinligi tahlil qilinadi. Taqqoslama tahlil va keys-stadilar orqali mazkur amaliyotlarni umumiy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun imkoniyatlar, muammolar va strategiyalar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Prezident maktablari boshqaruv modelini moslashtirish ta'lim sifatini yaxshilash, ma'muriy samaradorlikni oshirish hamda barcha maktablarda o'qitish va o'rganishda innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Применение управленческих практик президентских школ в общеобразовательных учреждениях

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

президентские школы,
управление образованием,
общее среднее
образование,
эффективность
преподавателей,
обучение,
ориентированное на
учащегося,
обеспечение качества.

В данном исследовании рассматриваются процесс и эффективность применения управленческих практик президентских школ в общеобразовательных учреждениях. Президентские школы, созданные для подготовки высокоуспевающих учащихся и продвижения инновационных подходов в обучении, продемонстрировали передовые модели управления образованием, основанные на меритократии, подотчётности и современных педагогических технологиях. В работе исследуется, как такие управленческие принципы, как принятие решений на основе данных, оценка эффективности преподавателей, развитие лидерских качеств и ориентация на обучающегося, могут быть адаптированы к условиям обычных школ. Путём сравнительного анализа и изучения конкретных примеров определяются возможности, проблемы и стратегии успешной интеграции данных практик в систему общего образования. Результаты исследования показывают, что адаптация модели управления президентских школ способствует повышению общего качества образования, улучшению административной эффективности и развитию инноваций в преподавании и обучении во всех школах.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab ta'lim tizimlari o'qitish sifati, o'quv natijalari va maktab boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan sezilarli o'zgarishlarni guvohi bo'lmoqda. O'zbekistonda bu yo'nalishda amalga oshirilgan eng innovatsion qadamlaridan biri Prezident maktablarining tashkil etilishidir. Ushbu maktablar zamonaviy pedagogik usullarni, ilg'or texnologiyalarni va xalqaro ta'lim standartlariga mos samarali boshqaruv modellarini joriy etish uchun tajriba maydonchasi vazifasini bajaradi. Ularning muvaffaqiyati butun mamlakat bo'ylab umumiy o'rta ta'lim muassasalarini isloh qilish uchun yetakchi model sifatida e'tiborni tortmoqda.

Prezident maktablari boshqaruv tizimi shaffoflik, javobgarlik, boshqaruvni rivojlantirish hamda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini meritokratiya tamoyillari asosida baholash kabi jihatlar bilan ajralib turadi. Ushbu amaliyotlar ta'limdagi yutuqlarni oshirish, pedagoglarni rag'batlantirish hamda innovatsiyalar madaniyatini shakllantirishda samarali natijalar bermoqda. Biroq bu amaliyotlarni resurslar, infratuzilma va kadrlar malakasi cheklangan oddiy umumta'lim maktablariga moslashtirish muhim muammolardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlili Prezident maktablari boshqaruv modeli va uning umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tadbiq etilishi masalasini turli nuqtai nazarlardan o'rganadi: siyosiy-huquqiy hujjatlar va strategiyalar, ta'lim boshqaruvi nazariyasi, maktab ichki boshqaruvi (school leadership), sifat nazorati, o'qituvchilarni baholash va kasbiy rivojlanish hamda amaliy misollar kabilardir. Tahlil mavzuni kontekstga joylashtirib, qaysi elementlar mukammal ishlayotganini va qaysilari moslashuvni talab qilishini ko'rsatadi.

Prezident maktablari ta'limda yangi yo'nalish yaratish borasida milliy siyosat va ta'lim islohotlari hujjatlari (stratejiya, qarorlar) mamlakat darajasida yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy irodaning mavjudligi va moliyaviy hamda institutsional qo'llab-quvvatlash – boshqaruv modelini kengroq maktablarga tatbiq etishda asosiy shartlardir. Adabiyotlarda ushbu modelga xos elementlar: ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making), samaradorlikni o'lchash uchun indikatorlar, meritokratik kadr siyosati, hamkorlikka yo'naltirilgan yetakchilik (distributed leadership) va texnologiyalardan foydalanish ko'p ta'kidlangan. O'qituvchilarni baholash tizimlari (performance appraisal), professional standartlar va rag'batlantirish mexanizmlari Prezident maktablarida samarali qo'llanilgani haqida manbalar mavjud. Biroq adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, baholash tizimini umumta'lim maktablariga ko'chirishda adolat, obyektivlik va resurslar (vaqt, malaka, trening) muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Prezident maktablari odatda resurslar va infratuzilma jihatidan afzalliklarga ega. Shu sababli, adabiyotlarda resurs tafovutlari umumiy ta'lim maktablariga modelni to'la ko'chirishda asosiy to'siq ekani ta'kidlangan. Tenglik va inklyuzivlik nuqtai nazaridan ba'zi tadqiqotlar Prezident maktablari modeli ko'proq imkoniyatlarga ega talabalarni targ'ib qilishi mumkinligini, bu esa tizim ichida ijtimoiy adolat masalasini keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Milliy va xalqaro miqyosda olib borilgan ishlar Prezident maktablaridagi ba'zi boshqaruv elementlari – masalan, ma'lumotlarga asoslangan monitoring, samarali rahbarlik va o'qituvchilarni rivojlantirish – o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Biroq mahalliy sharoitdagi o'rganishlar ko'pincha moslashtirilgan yondashuv va bosqichma-bosqich integratsiyani tavsiya qiladi, masalan, Prezident maktablari tajribasini to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi ehtimolini ham tug'diradi. Bosqichma-bosqich tatbiq etish (pilot loyihalar orqali), mahalliy sharoitga moslashtirish, maktab rahbarlari va o'qituvchilarni tayyorlash, resurslarni optimallashtirish va mahalliy hamjamiyatni jalb etish tavsiya etiladi. Siyosat ishlab chiquvchilarga berilgan tavsiflarda monitoring va baholash tizimini uzluksiz yangilab borish, shuningdek, adolatli resurs taqsimoti muhimligi qayd etilgan.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga oid farmon va qarorlari, shuningdek, Milliy o'quv dasturi tamoyillari bilan belgilanadi.

Metodologik jihatdan tadqiqot zamonaviy ta'lim menejmenti, innovatsion boshqaruv, strategik rejalashtirish, sifat nazorati va ta'limda liderlik nazariyalariga tayanadi. Shuningdek, xalqaro ta'lim tizimlarida – xususan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda qo'llanilayotgan ilg'or boshqaruv amaliyotlari tahlil qilingan va ularning milliy ta'lim tizimiga mos jihatlari e'tiborga olingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Prezident maktablarining boshqaruv tizimini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, ularning samarali boshqaruv tajribasini umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tatbiq etishning imkoniyatlari, mexanizmlari va istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil metodi – Prezident maktablari boshqaruv tizimiga oid ilmiy manbalar, hujjatlar va adabiyotlarni o'rganish uchun;

Taqqoslash metodi – Prezident maktablari va umumta'lim maktablari boshqaruv tizimlari o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlash uchun;

So'rovnoma va intervyu – ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrini o'rganish uchun;

Kuzatuv metodi – boshqaruv jarayonini tabiiy muhitda tahlil qilish uchun;

Statistik tahlil – ma'lumotlarni qayta ishlash, ularning tahlilini amalga oshirish uchun;

Ekspert baholash metodi – ta'lim menejmenti bo'yicha mutaxassislarning fikrini umumlashtirish va baholash uchun.

TADQIQOT NATIJALARI

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Prezident maktablari ta'lim sohasida yuqori samaradorlikka erishgan ilg'or boshqaruv modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu maktablarda boshqaruv faoliyati meritokratiya, shaffoflik, innovatsion yondashuv va liderlikni rivojlantirish kabi tamoyillarga asoslanadi. Mazkur tamoyillar o'quv jarayonining sifatini oshirish, pedagoglarning motivatsiyasini kuchaytirish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv tizimi asosan an'anaviy yondashuvlarga asoslanadi va bu holat ta'lim sifatining barqaror o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Qaror qabul qilishda ma'lumotlarga asoslanmaslik,

pedagogik faoliyatni natijaviy baholash mexanizmlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani, shuningdek, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalari yetarli darajada emasligi bu tizimda mavjud asosiy muammolardir.

Prezident maktablari boshqaruv tajribasining ayrim elementlarini – strategik rejalashtirish, sifat nazorati, raqamli boshqaruv, pedagogik liderlik va natijaviy baholash tizimini – umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tatbiq etish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish imkoniyati mavjud. Biroq bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun resurs bazasini mustahkamlash, rahbar va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, hamda yangiliklarni joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Prezident maktablari tajribasini umumta'lim tizimiga tatbiq etish ta'lim boshqaruvi sifatini oshirishga bevosita ta'sir qiladi.

Zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish – ta'lim jarayonini shaffof, samarali va natijaviy qilishning eng muhim omilidir.

Raqamli texnologiyalar, sifat monitoringi va liderlikka asoslangan boshqaruv tizimining kengaytirilishi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Tizimni isloh qilishda psixologik, tashkiliy va moddiy to'siqlarni bartaraf etish orqali Prezident maktablari modeli asosida innovatsion boshqaruv madaniyatini shakllantirish mumkin.

Umuman olganda, Prezident maktablari boshqaruv faoliyatini umumiy o'rta ta'lim tizimiga moslashtirish mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, rahbarlik faoliyatini takomillashtirish va o'quv jarayonining sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Prezident maktablarida joriy etilgan boshqaruv tizimi O'zbekiston ta'lim tizimida samarali natijalar berayotgan ilg'or model sifatida e'tirof etiladi. Bu maktablarda boshqaruv jarayoni zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, shaffoflik, hisobdorlik, meritokratiya, innovatsion pedagogika va natijaviylik tamoyillarini o'z ichiga oladi. Natijada o'quvchilarning bilim sifati oshmoqda, o'qituvchilar faoliyati samaradorligi kuchaymoqda, ta'lim muhitida raqobatbardoshlik va yangilikka intilish ruhi shakllanmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa bu kabi tizimlarning to'liq joriy etilmaganligi, boshqaruvning asosan an'anaviy shaklda tashkil etilishi ta'lim sifati va samaradorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois Prezident maktablari tajribasini umumta'lim tizimiga tatbiq etish o'qituvchi va rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ta'lim jarayonini samarali rejalashtirish hamda o'quvchi shaxsini markazga qo'ygan boshqaruv modelini shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, Prezident maktablarining boshqaruv amaliyoti elementlarini – strategik rejalashtirish, sifat monitoringi, raqamli boshqaruv, o'qituvchilarning faoliyatini baholash, va liderlikni rivojlantirish tizimini – bosqichma-bosqich joriy etish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish mumkin.

Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish: Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv, sifat nazorati va natijaviylikka asoslangan yondashuvlarni yo'lga qo'yish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish: Ta'lim jarayonida raqamli boshqaruv platformalarini (elektron reyting, elektron kundalik, pedagogik tahlil tizimi va h.k.) keng tatbiq etish.

Rahbar va pedagoglar malakasini oshirish: Prezident maktablari tajribasi asosida maxsus o'quv kurslari, seminar va treninglar tashkil etish.

Liderlik madaniyatini shakllantirish: Maktab rahbarlari va o'qituvchilarda zamonaviy liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish.

Sifat monitoringi tizimini yaratish: Ta'lim natijalarini muntazam tahlil qilib, ularni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy omil sifatida qo'llash.

Innovatsion pedagogik muhitni kengaytirish: Prezident maktablaridagi ilg'or tajribalarni asos sifatida olib, umumta'lim maktablarida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan muhit yaratish.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash: Innovatsion boshqaruvni qo'llab-quvvatlash uchun zarur infratuzilma va texnik resurslarni ta'minlash.

Umuman olganda, Prezident maktablari boshqaruv tajribasini umumiy o'rta ta'lim tizimiga tatbiq etish mamlakatda ta'lim sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonni bosqichma-bosqich, ilmiy asosda va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshirish O'zbekiston ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019-yil, 20-aprel). Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-4708-son qaror). Toshkent.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021-yil, 25-iyun). Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida (381-son qaror). Toshkent.

3.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020-yil, 23-sentabr). Ta'lim to'g'risida (ZRU-637-son Qonun). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

4.Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022-yil, 28-yanvar). 2022–2026-yillarda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-60-son farmon). Toshkent.

6.Xolmatova, M. (2021). Maktab boshqaruvida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, (4), 55–61.

7.Abdullayeva, N. (2022). Umumta'lim maktablarida boshqaruv samaradorligini oshirish omillari. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotnomasi, (2), 47–53.

8.Saidova, D. (2020). Pedagogik menejmentda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

9.Fullan, M. (2014). The principal: Three keys to maximizing impact. San Francisco: Jossey-Bass.

10. Bush, T. (2020). Theories of educational leadership and management (5th ed.). London: Sage Publications.

11.Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). Professional capital: Transforming teaching in every school. New York: Teachers College Press.

12.Leithwood, K., Harris, A., & Hopkins, D. (2020). Seven strong claims about successful school leadership revisited. *School Leadership & Management*, 40(1), 5–22.
<https://doi.org/10.1080/13632434.2019.1596077>